

Concepts of Administrative Court Proceedings

Termez State University Faculty of Law Lecturer at the Department of Criminal
Law and Civil Procedure Associate Professor of Termez State University

Norkuvvat Yangiboyev

Termez State University Faculty of Law Students

Umidullayev Asilbek Bakhtiyor o'g'li

Olimov Maxmayusuf Amin o'g'li

Article

Abstract: This article analyzes the legal foundations, formation process, and development stages of administrative court proceedings in the Republic of Uzbekistan, as well as their role within the judicial system. It substantiates that the establishment of administrative courts is aimed at ensuring the effective resolution of disputes arising between individuals or legal entities and state bodies, as well as protecting their rights and legitimate interests through judicial mechanisms.

The article also examines large-scale judicial and legal reforms implemented in the country, including the Action Strategy for further development and subsequent normative legal acts. It emphasizes that the introduction of administrative courts strengthens judicial control over public authorities and improves citizens' access to fair justice. Furthermore, the study highlights institutional reforms within the judicial system, improvements in procedural mechanisms, and measures aimed at safeguarding human rights. Special attention is given to strengthening judicial independence, enhancing transparency, and ensuring equality of parties in court proceedings.

KEYWORDS: administrative court, court proceedings, justice, state bodies, citizens' rights, judicial reform, procedural system, judicial control, human rights, Action Strategy, judicial independence, administrative law, fairness, adversarial principle, judicial system.

“Ma’muriy sud ish yurituvi tushunchalari”

Maqola

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy sud ish yurituvining huquqiy asoslari, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda sud-huquq tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Ma’muriy sudlarning tashkil etilishi fuqarolar va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan yuzaga keladigan nizolarini samarali hal etish, shuningdek, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan asoslab berilgan.

Shuningdek, maqolada sud-huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar, jumladan Harakatlar strategiyasi hamda keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni yoritilgan. Ma’muriy sudlar faoliyatining joriy etilishi davlat organlari ustidan samarali sud nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Bundan tashqari, maqolada sud tizimidagi institutsional o‘zgarishlar, protsessual mexanizmlarning takomillashtirilishi hamda inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar tahlil qilingan. Sudlarning mustaqilligini ta’minlash, shaffoflikni kuchaytirish va taraflar tengligini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ma’muriy sud, sud ish yurituvi, odil sudlov, davlat organlari, fuqarolar huquqlari, sud islohoti, protsessual tizim, sud nazorati, inson huquqlari, Harakatlar strategiyasi, sud mustaqilligi, ma’muriy huquq, adolat, tortishuv prinsipi, sud tizimi

Ma’muriy sud ishlarini yuritish (ma’muriy sud protsessi) — bu ma’muriy sudlar tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning davlat organlari hamda mansabdor shaxslar bilan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarini ko‘rib chiqish va hal etish bo‘yicha protsessual faoliyatdir.

Ma’muriy ish: Nizoni hal qilish uchun sud tomonidan ish yuritishga qabul qilingan

ariza (talab), unga tegishli materiallar va ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa hujjatlar majmui.

Ma'muriy organ: Ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida boshqaruv vakolati berilgan davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar.

Ma'muriy hujjat: Ma'muriy organning ommaviy-huquqiy munosabatlarni o'rnatish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan, muayyan shaxs yoki shaxslar guruhi uchun huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradigan qarori (masalan, hokim qarori, litsenziya berish yoki rad etish haqidagi buyruq).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, so'nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.¹

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasida strategik ahamiyatga ega muhim qadam tashlandi.

Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi

¹ <https://strategy.uz/>

Konstitutsiyasining 110-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishini ham ta'minlaydi.

Ma'lumki, ixtisoslashgan sudlar sudga taalluqli ishlarni o'z vaqtida, sifatli ko'rish va hal etish, odil sudlovning samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biridir.

O'z navbatida mamlakatimizda ma'muriy sudlarni tashkil etish zarurati quyidagi omillar bilan ham belgilanadi:

jinoiyat qonunchiligi tobora liberallashtirilib, ayrim qonunbuzarlik uchun belgilanadigan jazo choralari bosqichma-bosqich jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazilishi;

sudlarda ko'rilayotgan fuqarolik, iqtisodiy va jinoiyat ishlariga qaraganda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning ko'pchilikni tashkil etishi;

fuqarolarning davlat boshqaruviga oid huquqlari va qonuniy manfaat-larini sud tartibida himoya qilishning samarali tizimini yaratish zarurati;

davlat boshqaruv organlari, ular mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlash, bu sohada sud nazoratini takomillashtirishning talab etilayotgani.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 55-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansab-dor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. ²O'z navbatida mamlakati-mizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi asosiy qonunimizda mustah-kamlangan ushbu huquqlarni samarali amalga oshirilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz Konstitutsiyasi ishlab chiqilayotgan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
255

Binobarin, Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo'yilgan sud ishlari yuritishning muhim konstitutsiyaviy prinsiplari, ya'ni sudya-larning mustaqil ekanligi va faqat qonunga bo'ysunishi,

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, hamma sudlarda ishlar ochiq ko'rilishi, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekanligi,

O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi, sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanishi, himoyalash huquqi bilan ta'minlanish va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqining kafolatlanishi kabi prinsiplar.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida ham o'z ifodasini topishi lozim.

Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Hujjat davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali hamda ishonchli himoya etilishini ta'minlash va ma'muriy sud ishlarini yuritishni xalqaro standartlardan kelib chiqib yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

Qarorda aytilishicha, o'tgan davrda ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan 120 mingga yaqin ariza va shikoyatlarning 57 foizi qanoatlantirilib, fuqarolar

va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari tiklangan.³

Qarorga ko'ra, ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:⁴

davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli va samarali himoya etilishini ustuvor ravishda ta'minlash;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashda sudning faol ishtiroki prinsipini qo'llash mexanizmlarini kengaytirish;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilishda ma'muriy sudlarning rolini kuchaytirish orqali aholining sud tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish;

davlat organlari tomonidan sud qarorlari ijro etilishi ustidan nazoratning ta'sirchan mexanizmlarini to'liq joriy etish;

ma'muriy yustitsiya tizimi rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirib borish.

Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Sudyalar oliy kengashi tashkil qilindi.⁵ Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi

³ <https://www.gazeta.uz/>

⁴ <https://constitution.uz/>

⁵ <https://www.norma.uz/>

instansiyada ko‘rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o‘z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o‘tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o‘z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat’iy belgilab qo‘yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o‘tkazish va boshqa zo‘ravonlik holatlari qat’iyan taqiqlandi.

Sudda ishlarni ko‘rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi yo‘lida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko‘rib chiqildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ma‘muriy sud ish yurituvining joriy etilishi sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish yo‘lida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu institut fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi huquqiy nizolarni adolatli, tezkor va samarali hal etish imkonini yaratdi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida sud hokimiyatining mustaqilligi mustahkamlandi, sud jarayonlarining ochiqligi va shaffofligi oshirildi hamda fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchi sezilarli darajada kuchaydi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilib, odil sudlovga erishish imkoniyatlari kengaytirildi.

Umuman olganda, ma‘muriy sud tizimining rivojlanishi davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda sud tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://strategy.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. <https://www.gazeta.uz/>
4. <https://constitution.uz/>
5. <https://www.norma.uz/>